

**BUGUNGI KUNDA MILLIY KURASH SPORT TURINI RIVOJLANISHI VA UNING  
AHAMIYAT**

**Matnazarov Asadbek G'ayratjon og`li**  
*Urganch davlat universiteti*  
*Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda kurash sportining rivojlanishi hamda sportchilar va murabbiylarning faoliyati to'g'risida yetarlicha fik yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Kurash, milliy, sport, sportchi, o'yin, harakat.*

**Abstract:** *In this thesis, there is enough information about the development of wrestling and the activities of athletes and coaches.*

**Key words:** *Wrestling, national, sport, athlete, game, movement.*

**Аннотация:** *В диссертации достаточно информации о развитии спортивной борьбы и деятельности спортсменов и тренеров.*

**Ключевые слова:** *Борьба, народная, вид спорта, спортсмен, игра, действие.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.11.2020-yildagi Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4881-son qarori tasdiqlangan.

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analarini va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish berilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda kurash bo'yicha trenerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni 1,5 ming nafardan ortiqni tashkil etadi. Tahlillar ayrim hududlarda trenerlar sonining umumiyl aholi soni bilan yuqori nomutanosibligini ko'rsatmoqda. Xususan,

Qoraqalpog'iston Respublikasida 1,8 milliondan ortiq aholi soniga nisbatan 179 nafar (0,009 foiz), Toshkent shahrida 2,5 milliondan ortiq aholi soniga nisbatan 39 nafar (0,001 foiz), Andijon viloyatida 3 milliondan ortiq aholi soniga nisbatan 43 nafar (0,001 foiz) kurash treneri to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimizda kurash bilan shug'ullanuvchilar 2017-yilda 25 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib, bu ko'rsatkich 40 ming nafardan oshib, mamlakatdagi umumiy aholi sonining 0,1 foizini tashkil etmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, ularda aholining aksariyat qismi milliy sport turlari bilan muntazam shug'ullanib keladi. Jumladan, 1936-yilda Xalqaro olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan basketbol o'yinining vatani AQShda aholining 10 foizga yaqini yoki 25 million nafari ushbu sport turi bilan muntazam shug'ullanadi. Shuningdek, mazkur davlatda 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan aholining 27 foizi, 30 dan 49 yoshgacha bo'lganlarning 23 foizi, 50 dan 64 yoshgacha bo'lganlarning 7 foizi so'nggi 12 oyda basketbol milliy sporti bilan shug'ullangan.

Shuningdek kurash sportining texnik va taktik harakatlarining ham rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Kurashni, xususan, jismoniy tarbiyani rivojlantirishda turli xil harakatli o'yinlar targ'ib qilinadi. Jismoniy tarbiyaning muhim bosqichlaridan biri jismoniy vositadir. Ularning tarkibiy qismi esa harakatli o'yinlar, sport turlari, turli sog'lomlashtiruvchi ta'sir kuchlaridan iborat. Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mana shunday harakatli o'yinlar ham o'z ichida quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Jamoali (komanda) o'yinlar
2. Ommaviy o'yinlar ( ko'pchilik birgalikda o'ynaydigan o'yinlar)
3. Yakka tartibda yoki juftlikda o'ynaladigan o'yinlar
4. Estafetali o'yinlar

Jamoali o'yinlarda ikki yoki undan ortiq jamoalar ishtirok etadi. Masalan, "Kartoshka ekish" o'yini. Ommaviy harakatli o'yinlarda barcha qatnashchilar baravariga o'yinda ishtirok etadilar. Masalan, "Kalxat keldi, qoch bolam". Yakka yoki juft o'yinda ikki ishtirokchi qatnashadi. Masalan, "Yelka urishtirish", "Xo'rozlar jangi". Estafetali o'yinlar ham umumiy, jamoali, yakka bo'lishi mumkin. Masalan, "Eshak mindi", "Cho'pon ", "Podato'p".

Xulosa o'rnila shuni aytish joizki, jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari, turli xil sport musobaqlari jarayonlarida harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishga maxsus tayyorgarlik talab etiladi. Xususan, sportning kurash turini rivojlantirish maqsadida harakatli, egiluvchan harakatlariga oid mashqlarni bajarish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.11.2020-yildagi Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4881-son qarori
2. S.O.Saidg'aniyev Kurashchilarni texnik tayyorgarligini maxsus harakatli o'yinlar yordamida rivojlantirish Academic Research in Educational Sciences